

**O‘QUVCHILARGA SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISHDA  
ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR**

**Raxmonov A. R.**

*CHDPU “Umumiy pedagogika” kafedrası*

*Pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori*

*Tel: +998(94)5145579,*

[a.raxmonov@cspi.uz](mailto:a.raxmonov@cspi.uz).

**Axmadjonova D.E.**

*Yuqori Chirchiq tumani 6-sonli umumiy o‘rta ta‘lim*

*maktabining texnologiya fanidan 1-toifali o‘qituvchi*

*Tel: +998(99)3000393*

[d.axmadjonova@gmail.com](mailto:d.axmadjonova@gmail.com)

**Annotatsiya:** *maqolada sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli tashkil etishda pedagogik tajribaning va boshqaruv usullarining afzalliklari ilmiy nazariy jixatdan aslab berildi.*

**Kalit so‘zlar:** *sinfdan tashqari ishlar, tarqqiyot strategiyasi, boshqarish usullari, jamoasini shakllantirish metodikasi, tashkilotchilik faoliyatiga, kitobxonlar konferentsiyasi.*

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi tarkibi asosida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jixatdan yo‘liga ega bo‘lishi, xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan maktab ta‘limi tizimida ham yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Maktab faoliyatida shu jumladan sinfdan tashqari ishlarni - tarkibiy qismi hisoblangan tarbiyaviy ishining tizimini rejalashtirilishi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini tashkil etishga e‘tibor qaratish zarur. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratiladi. Sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg‘ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg‘ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar (maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o‘tkazish, viktorina va ko‘rgazmalar uyushtirish, tabiat qo‘yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish), to‘garak ishlari (o‘quvchilarning turli to‘garaklar, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari), mustaqil ishlar (o‘quvchilarning sinfdan

tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishi)ni ko'rsatish mumkin. O'rta umumta'lim maktablarida bu ishlarni sinf rahbari va tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi bajaradi. Sinf rahbarning faoliyat davomida to'garak rahbarlariga yaqindan ko'maklashishi kerak. Qiziqishlari va intilishlari bir xil bo'lgan o'z o'quvchilarini biror to'garakka a'zo bo'lishga chorlaydi. Sinfdan tashqari tashkil qilingan ishlar asosida o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ayniqsa ularni dunyoqarashini to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog'lanishiga zamin yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi hodim vazifalari ham ko'p qirrali hisoblanadi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisining vakolatiga quyidagilar kiradi:

– darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish;

– o'quvchilarning sinfdan tashqari ko'p qirrali ishlarni pedagogik jamoa, o'quvchilar tashkilotlari sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish;

– sinfdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ota-onalar, o'quvchilar tashkilotlari, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish;

– maktab bo'yicha va maktablar o'rtasida o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish;

– o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish;

Bu borada tashkilotchilar faolligini uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin:

-tashkilotchilik,

-uslubiy yondashuv;

-ma'muriy jixatlari.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Tashkilotchining tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni kiritish mumkin:

– tarbiyaviy ishlar sohasida erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish;

– tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniqlash;

–tarbiyaviy, ommaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmuni, shakl va usullarini aniqlash;

– sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni guruhlashtirish, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash. Maktabda tarbiyaviy ishlarni aniq rejalashtirmasdan uning mazmuni, shakl va usullarini aniqlamasdan, ma'lum bir tizimga solmasdan turib ko'zda tutilgan

maqsadga erishish qiyin. Sinfdan tashqari ishlarning tarbiyaviy ta'siri ko'p darajada o'quv jarayonini tashkil etish saviyasiga hamda o'quvchilar jamoachining xilma-xil ishlarni qanday yo'lga qo'yishga bog'liqdir. Sinfdan tashqari faoliyat majburiy dastur bilan chegaralanmaydi, balki yoshlari har xil o'quvchilarni ihtiyoriy ravishda birlashtiradi. Ularning tashabbusi asosida ishlarni amalga oshiradi, fanga qiziqtiradi,

ularni xalqning madaniy hayoti muhitiga olib kiradi. Sinfdan tashqari ishlar shaxsdagi ijtimoiy faollik, ijtimoiy ong hamda axloqiy odatlarni tarkib toptirishning eng muhim omilidir. Bu faoliyat ilmiy jamoa, adabiy va maktab san'at to'garak ishlari, turli mavzularda o'tkaziladigan kitobxonlar konferentsiyasi va munozaralar, siyosiy, axloqiy, ilmiy-ommabop va mehnat mavzularidagi ma'ruza va suhbatlar, ijtimoiy-foydali mehnat, siyosiy axborot, bayoram kechlari va ertaliklari, to'garak mashg'ulotlarini o'z ichiga oladi. O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi va shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar sinfdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadi, turli vazifalarga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning sinfdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy, munosabat doirasi keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Sinfdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoada ishlashni o'rganadilar ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar, ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar, jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga odatlanadilar. Sinfdan tashqari faoliyat unda qatnashuvchilarning ma'naviy va jismoniy rivojlanishi hamda yosh xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Bu jarayonga ular ta'lim olayotgan maktabning sharoiti ham ta'sir etadi. Garchand mamlakatimizdagi barcha maktablarning vazifalari bir bo'lsa-da, o'sha maktablarning o'ziga xos xususiyatlari bor va bu xususiyatlar madaniy va milliy sharoitlarda yaqqol ko'rinadi. Tarbiyachilar, sinf rahbarlarining sinfdan va maktabdan tashqari olib boradigan tarbiyaviy ishlarida quyidagi ish usullaridan foydalanishlari maqsadga muvofiqdir.

**1. Og'zaki ish usullari.** Turli axborotlar, majlislar, ertalabki yig'inlar, ma'ruzalar, kitobxonlar konferentsiyalari, munozaralar, uchrashuvlar, og'zaki gazetalar, radiojurnallar.

**2. Amaliy ish olib borish usullari,** turli joylarga sayyohlar, sport musobaqalari, olimpiada, iztoparlar ish faoliyati, yosh tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar.

**3. Ko'rgazmali ish usullari.** Maktab muzeylari, urush va mehnat qahramonlari xonasi, yangi kitoblar yarmarkasi kabilar kiradi. Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qolibiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishlari lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlari paydo bo'ladi, bu esa ularni mehnatdagi tashqi faollikni yo'qqa chiqaradi. Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning hatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb

hisoblash kerak. O‘z-o‘zini tekshirish, o‘zaro tekshirish usullariga o‘rgatish o‘qituvchining o‘quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash ishi jarayoni ravshan bo‘ladi. O‘quvchilarning o‘zlari harakatni taklif etadilar vash u bilan pedagogga mo‘ayyan ma‘lumot beradilar. Sinf rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to‘la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish, faollarni tarbiyalash, o‘quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an‘analarni yaratish va ko‘paytirish. Ta‘riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun ko‘rsatma hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.R.Raxmonov “Boshlang‘ich ta‘lim jarayoniga innovatsiyon yondashuv” Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari “O‘qituvchi innovatsiyon faoliyatining asosiy xususiyatlari” 66b
2. A.R.Raxmonov “Zamonoviy o‘quv mashg‘uloti va ta‘limning o‘ziga xos imkoniyatlari” O‘zbekiston respublikasi xalq ta‘limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali 2020 yil 51b.
3. Ruzvonovich, R. A. (2022). The main features of the formation of a sense of patriotism in the family in students. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 5, 61-63.
4. Raxmonov, A. R. (2021). PEDAGOGIK TA‘LIMNING INNOVATSION KLASTERI TA‘LIM MUASSASALARI O‘RTASIDA O‘ZARO HAMKORLIK VOSITASI SIFATIDA. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 215-217.
5. Raxmonov, A. R. (2022). BUYUK AJDODLAR ILMIY MEROSINI O‘RGANISH ASOSIDA MILLIY IFTIXOR TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 1034-1038.
6. Ruzvonovich, R. A. (2021). THE MAIN FEATURES OF THE FORMATION OF A SENSE OF PATRIOTISM IN THE FAMILY IN STUDENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 447-450.
7. Рахмонов, А. Р. (2021). ТАЛАБАЛАРДА МИЛЛИЙ ИФТИХОР ТУЙГУСИНИНГ ШАКЛЛАНТИРИШДА КЛАСТЕР МЕТОДИДАН ФОЙДАЛАНИШ САМАРАЛИ УСУЛИ СИФАТИДА. *Academic research in educational sciences*, 2(9), 881-885.

8. Raxmonov, A. R. (2021). O'QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TARBIYASINI OILA BILAN BIRGA AMALGA OSHIRISHDA INDIVIDUAL VA GURUHLI TA'LIMNI AFZALLIK TOMONLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 80-83.
9. Raxmonov, A. R., & Sultonova, O. B. (2021). OILADA OTA-ONALARNING FARZANDLAR UCHUN NAMUNA JIXATLARI VA O'ZIGA XOS PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 37-41.
10. O'G'LI, E. D. Y. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuch sifatini rivojlantirish va sport turlariga saralash. *Scienceweb academic papers collection*.
11. Эгамов, Д., & Рахманов, Е. (2021). Широкая пропаганда здорового образа жизни и дальнейшее развитие массового спорта. *in Library*, 21(2), 3-5.
12. O'G'LI, E. D. Y. (2021). Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish. *Scienceweb academic papers collection*.
13. O'G'LI, E. D. Y. (2021). Совершенствование методов популяризации массового спорта среди молодёжи. *Scienceweb academic papers collection*.
14. Эгамов, Д. (2021). Совершенствование методов популяризации массового спорта среди молодёжи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 28-32.
15. Раупов, Ж. Р. (2023). Международный опыт использования технологий интернета вещей в цифровых платформах. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (3), 91-100.
16. Sidikovich, K. S. (2023). Analysis of national and foreign experiments on the diagnosis of processes for the development of a sense of patriotism. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 16, 243-248.
17. Kuvondikov, S. S. (2023). Model for the development of a sense of patriotism in future educators. *Confrencea*, 6(6), 289-292.
18. Sidikovich, K. S. (2023). Integrative-Pedagogical Features of The Development of A Sense of Patriotism in Future Educators. *European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices*, 1(2), 259-264.
19. Sidikovich, K. S. (2023). Theoretical bases of developing a sense of patriotism in future teachers based on the competence approach. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 15, 363-366.
20. Kadirova, O. K. (2022). From the history of Russian-Uzbek literary relations (comparative typological analysis). *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 1(12), 1082-1088.
21. Kadyrova, O. K. (2020). Professional pedagogical activity its types and structure. *Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук*, 1(12), 93-96.
22. Кадырова, О. Х. (2002). Межлитературные типологические сопоставления в процессе преподавания. *Янги аср авлоди*, 1(1), 96.

23. Кадырова, О. Х. (2013). Русский язык 5 класс Книга для учителя. *Маънавият*, 1(1), 160.
24. Kadirova, O. K. (2022). Use of the Neurolinguistic Programming Method to Achieve the Goals of the Educational Process. *International Scientific Journal Theoretical & Applied Science*, 10(12), 188-192.
25. Kadirova, O. K. (2022). Boshlang'ich ta'lim rivojlantirish muammolari va istiqbollari. *Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish*, 403(1), 18-19.
26. Кадирова, О. Х., & Кадирова, З. З. (2022). Ўзбек терминологияси. *Журнал филологических исследований*, 1(2), 156-160.
27. Рахмонов, А. Р., & Каримова, Г. Ш. Қ. (2021). БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИ ТАБИАТНИ АСРАШГА ЎРГАТИШДА ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ МЕТОДЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Academic research in educational sciences*, 2(4), 542-549.
28. Rakhmanov, A. R. (2020). PROBLEMS OF SELF-ESTEEM IN ENSURING CONTINUITY OF FAMILY AND SCHOOL COOPERATION IN CLASSROOM MANAGEMENT ACTIVITIES. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 144-149.
29. Рахмонов, А. Р. (2020). ТАЛАБА-ЁШЛАРДА МИЛЛИЙ ИФТИХОР ТУЙҒУСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Academic research in educational sciences*, (4), 782-787.
30. Рахмонов, А. Р. (2017). ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. In *Safety of a person and society as a problem of social sciences and humanities* (pp. 83-85).
31. Ruzvonovich, R. A. Pedagogical Problems of Formation of National Pride in Students. *JournalNX*, 501-504.